

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

J.Xudoyberdiyev, A.Reymov, R.Kurbaniyazov, SH.Namazov, O.Badalova, A.Seytnazarov Qoraqalpog‘istonning jelvakli fosforit uni asosidagi faollashgan superfosfat	248
M.Ahmedov, Z.Teshaboyev “Hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida innovatsion xarakterga ega bo‘lgan “mavzu ishlanmasi” tayyorlash.....	255
KIMYO	
S.Samatov, A.Ikramov, O.Ziyadullayev, S.Abduraxmanova Benzaldegid va uning xosilalarini fenilatsetilen ishtirokida enantioselektiv alkinillash jarayoni.....	259
I.Asqarov, G‘.Madrahimov, M.Xojimatov ³ O-ferrotsenil benzoy kislotasini ayrim hosilalarining biologik faolligini o‘rganish	267
U.Mamatkulova, X.Isakov, I.Askarov Sarimsoqpiyoz va po‘stining kimyoviy tarkibi, shifobaxshlik xususiyatlari.....	271
I.Askarov, Z.Nazirova Qizil lavlagi tarkibidagi ayrim kimyoviy birikmalar va ularning ahamiyati	275
I.Asqarov, B.Nizomov Yeryong‘oq va yong‘oq mevasining qiyosiy kimyoviy tarkibi va shifobaxsh xususiyatlari	279
I.Mamatova, I.Askarov «Oltin vodiy» oziq-ovqat qo‘shilmasining giperglikemik xususiyatlari	283
I.Askarov, X.Isakov, SH.Turaxonov Monometilolmochevinagallat efirlarini olish	286
BIOLOGIYA, QISHLOQ XO‘JALIGI	
A.Xusanov D.Kapizova, G.Zokirova, N.Oxunova Farg‘ona vodiysi sharoitida ochiq urug‘li daraxt va butalarning so‘ruvchi fitofaglari (Iachnidae, diaspididae): faunasi va ekologiyasi.....	290
M.Nazarov, M.Ma‘murova, A.Xamidov M.Mirzaxalilov Baliqchilik xo‘jaligi hovuzlarida fitoplankton tarkibi va o‘simlikxo‘r baliqlarni yetishtirishda ularning o‘rni	295
ILMIY AXBOROT	
Z.Xosilova Oshiqcha tana vazni va uning aholi guruhlari (18-59 yoshlilar) orasida uchrash holati	299
S.Mamadaliyeva, M.Omonova, B.Saydaliyev Mahalliy xomoshyodan adsorbentlarda parafinni chuqur tozalash uchun kombinirlangan texnologiya	302
A.Xolikulov Buxoro xonligining Rossiya bilan siyosiy aloqalari tarixidan.....	306
X.Jumaniyozov Markaziy Osiyoning tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, logistik imkoniyatlarining geosiyosiy jarayonlarga ta’siri.....	312
A.Hakimov Sovet davri maktab o‘qituvchilarining kundalik hayoti	316
G‘.Israilov Sakkokiy adabiy merosi o‘rganilishi manbalari xususida.....	321
S.Xoliqov Milliy xavfsizlikni ta’minlash jarayonida O‘zbekiston respublikasi Oliy Majlisi senati ishtirokining tashkiliy va nazariy-huquqiy asoslari	325
O.Axmadjonova Badiiy asarda psixologik (ruhiy) tahlil printsiplari va usullari.....	330
D.Buzrukova “Muhabbat” konseptining lingvomadaniy o‘ziga xosligi	334
K.Topvoldiyev Lermontov M.Yu. asarlarida XIX asr kavkazi.....	338
S.Abduraxmonov, SH.Ibragimov Ta’lim tizimida baholashning asosiy mezonlari va uning ahamiyati	345
A.U.Choriyev, G.O Temirova, Yetuk kimyogar, kamtarin olim	349

**“HAYOT DAVOMIDA O‘QISH” TAMOYILI ASOSIDA INNOVATSION XARAKTERGA
EGA BO‘LGAN “MAVZU ISHLANMASI” TAYYORLASH**

**ПОДГОТОВКА "ТЕМАТИЧЕСКОЙ РАЗРАБОТКИ" ИННОВАЦИОННОГО ХАРАКТЕРА
ПО ПРИНЦИПУ "ОБУЧЕНИЕ НА ПРОТЯЖЕНИИ ВСЕЙ ЖИЗНИ"**

**PREPARATION OF A “TOPIC DEVELOPMENT” OF AN INNOVATIVE CHARACTER ON
THE BASIS OF “LEARNING FOR A LIFETIME”**

Ahmedov Muhammadjon Mamadaliyevich¹, Teshaboev Zikrillo Abdullayevich²

Ahmedov Muhammadjon Mamadaliyevich

– *Farg‘ona davlat universiteti texnologik ta‘lim kafedrasida dotsenti, texnika fanlari nomzodi.*

Teshaboev Zikrillo Abdullaevich

– *Farg‘ona viloyati halq ta‘limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi direktor o‘rinbosari. Mustaqil izlanuvchi.*

Annotatsiya

Таълим sohasidagi globallashtirish jarayonida o‘quvchilar ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali yangiliklardan xabardor bo‘lib borayotganligini inobatga olsak, fan o‘qituvchisi ham o‘z dars mavzusini muntazam ravishda yangiliklar bilan boyitib borishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Maqolaning maqsadi “Hayot davomida o‘qish” tamoyilini asosida “Mavzu ishlanmasi”ni yangi ma'lumotlar bilan muntazam boyitib boruvchi metod sifatida innovatsion xarakterga ega bo‘lib, fan va texnikaning so‘ngi yangiliklari bilan doimiy boyitib borilganligi bois, o‘qituvchi etragalik o‘quv mashg‘ulotlari uchun dars konspekti yozmaydi, kutubxonalardan ma'lumotlar izlamaydi va o‘z ustida ishlashga imkoniyat yaratiladi.

O‘qituvchi darsining mazmuni va sifati ortadi, o‘quvchi bilim darajasi hamda taъlim muassasasida taъlim-tarbiya jarayonining samaradorligi yanada yuqori darajaga ko‘tariladi. Natijada, “Mavzu ishlanmasi” fan va texnika yangiliklari hisobiga takomillashib, doimiy ravishda mazmunan boyib boraveradi. Tavsiya etilgan ushbu metod asosida tayyorlangan innovatsion xarakterga ega bo‘lgan “Mavzu ishlanmasi” taъlim tizimining yanada takomillashib borishining asosiy manbasi bo‘lib xizmat qilish barobarida “Yangi O‘zbekiston”ning bo‘lajak barkamol avlodlari, kelajagimiz poydevori bo‘lgan intellektual yoshlarni kompetentlik darajasi yuksalib borishini va rivojlangan davlatlar qatoridan o‘zining munosib o‘rnini egallashini taъminlaydi.

Аннотация

Учитывая, что в процессе глобализации образования, учащиеся все больше узнают новости через средства массовой информации и социальные сети учителю естественных наук целесообразно регулярно обогащать предмет новостями. Целью статьи является “тематической разработкой” новой информации на основе принципа «Обучение на протяжении всей жизни» как метод постоянного обогащения. При этом учитывается повышение содержания и качества уроков учителя, подъем на более высокий уровень знаний учащихся и эффективность образовательного процесса в образовательном учреждении. В результате, “Тематическая разработка” постоянно совершенствуется за счет научно-технических новшеств, обогащается содержание, которое постоянно обновляется. “Тематическая разработка”, имеющая инновационный характер служит основным источником дальнейшего совершенствования системы образования, обеспечивает повышение уровня компетентности и завоевание достойного места среди развитых стран будущими гармонично развитыми поколениями “нового Узбекистана”, интеллектуальной молодежью, являющейся фундаментом нашего будущего.

Abstract

Given that in the process of globalization in education, students are becoming more aware of the news through the media and social networks, it is advisable for the science teacher to regularly enrich the subject with news.

The aim of the article is to be innovative as a method of constantly enriching the “Topic Development” with new information based on the principle of “Reading for Life”. and the opportunity to work on their own.

The content and quality of the teacher’s lessons will increase, the level of knowledge of students and the effectiveness of the educational process in the educational institution will rise to a higher level. The “theme development” is constantly improving due to scientific and technical innovations, the content is enriched and there is no end to it.

As a result, the textbook “Topic Development” on the optional topic of the textbook is constantly improving and enriching the content, and this process continues uninterrupted, increasing the potential of the science teacher, the level of knowledge of students and the effectiveness of the educational process. The innovative source “Theme Development” prepared on the basis of this proposed method will serve as the main source of further improvement of the education

system, provides competence increase and taking a right place by the generation of a "new Uzbekistan" among the developed countries.

Kalit so'zlar: dars konspekti, dars ishlanmasi, mavzu ishlanmasi, ta'lim texnologiyasi, pedagogik texnologiya, texnologik jarayon, texnologik xarita, kompetentlik.

Ключевые слова: учебный план, план урока, разработка темы, образовательная технология, педагогическая технология, технологический процесс, технологическая карта, компетентность.

Keywords: syllabus, lesson plan, topic development, educational technology, pedagogical technology, technological process, technological map, competence.

KIRISH

Ta'lim tizimida dars mavzusi uchun asosiy manba darslik bo'lib, unda mavzuning minimal hajmi aks etadi. Darslik fanning o'quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik, psixologik, estetik va gigiyenik talablarga javob beradigan va o'quvchining yoshi va uning psixologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda tayyorlanadi. Odatda darsliklar 1-sinflarda har yili, 2,3,4-sinflarda har ikki yilda, 5-11 sinflarda esa har to'rt yilda chop etilishini hisobga olsak, 2-11 sinflarda fan va texnikaning so'ngi yangiliklarni darsliklarga kiritish, o'quvchilarga ushbu yangiliklarni o'z vaqtida etkazishda muammolar paydo bo'ladi.

Ta'lim tizimida mazkur muammolarni hal etishda "Hayot davomida o'qish" tamoyilini asosida "Mavzu ishlanmasi"ni yilma-yil ma'lumotlar bilan muntazam boyitib, to'ldirilib boruvchi mexanizm sifatida o'quv jarayonida foydalanish mumkinligi haqida fikr yuritmoqchimiz.

Halq ta'limi vazirligi tashabbusi bilan o'qituvchilarga ish faoliyatida engillik yaratish maqsadida dars konspektlarini yozish bekor qilindi. Biz ham bir kun oldin dars konspekti yozishga, ertagalik darsga tayyorgarlik ko'rishga e'tirozlarimiz bor. Albatta, bunday tartibda dars konspekti yozishning muammolari mavjud. Chunki, o'qituvchi ertagalik darsi 2-6 soat bo'lishi mumkin. Demak, o'qituvchi 6 tagacha mavzuga dars konspekti yozish kerak. Bu esa sifatsiz dars konspekti yozilishiga va o'z navbatida darsni samaradarligini pasayib ketishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan dars konspekti yozish bekor qilinganligini maqullash mumkin. Lekin, o'qituvchining dars davomida faqat darslik doirasida mavzuni tushintirib berish bilan bog'lanib qoladi, mavzu yuzasidan qo'shimcha ADABIYOTLARdan foydalanish va mavzu matnini tayyorlashni cheklab qo'yadi.

Hozirgi kunda fan va texnika olamida, shuningdek, ta'lim sohasidagi globallashuv jarayonida o'quvchilar ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali yangiliklardan habardor bo'lib borayotganligini inobatga olsak, fan o'qituvchisi ham o'z dars mavzusini muntazam ravishda yangiliklar bilan boyitib borishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, darslikdagi ma'lumotlarning hajmi minimal talab darajasida ekanligi, dars konspekti dars jarayoni talablariga javob bermaganligi e'tirof etildi. Shu kun talabidagi ishlanmani tayyorlash masalasi dolzarb muammo sifatida kun tartibida turibdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida hozirgi kun globallashuv jarayoni talablariga javob buruvchi mukammal tayyorlangan innovatsion xarakterga ega "Mavzu ishlanmasi" tayyorlashni taqozo etmoqda. "Mavzu ishlanmasi" esa o'qituvchi faoliyati (ilmiy-metodik salohiyati, ijodkorligi, pedagogik mahorati) darajasini aniqlovchi me'zon sifatida dars mavzusining dolzarbligi, maqsadi va vazifalari mazmun-mohiyatini ochib beruvchi reja, loyiha hujjati bo'lib hizmat qiladi.

Ma'lumki, "Davlat ta'lim standarti" o'quvchilarning bilim darajasi, mazmuni va minimal hajmga qo'yilgan talablarni belgilaydi" – deyilgan G'1G'.

Ushbu talablarning biri minimal hajm ekanligini ehtiborga olsak, o'quv darsliklari minimal hajmga keltirilgan, ya'ni har bir mavzu 2,5 – 3 betdan ko'p emas. Demak, darslikning har bir mavzusining dolzarbligi, maqsadi, vazifasi va xulosadan iborat bo'lib, jami 3 betgacha xajmga keltirilgan. Buning sababi maktablarda dars jarayoni 6 soatni tashkil etganligi va har bir fan uchun minimal hajmda tayyorlangan darslikdan iborat. Chunki, mavzularning sahifalari xajmi cheklanmasa, darslik kitoblarning xajmi va og'irligi ortadi, bu esa o'quvchiga, ayniqsa 1-4 sinf o'quvchilari, qolaversa yuqori sinf o'quvchilariga ham og'ir kitoblarni sumkada ko'tarib yurishiga to'g'ri keladi. Bu esa o'quvchilarning psixologik yosh xususiyatlari va gigiyenik talablarga zid, albatta. Shu va shu kabi sabablarga ko'ra darslik hajmi cheklangan bo'lishi bizga ma'lum.

Lekin, buning natijasida darslikdagi mavzularning hajmi minimal darajada cheklanganligi mavzuning mazmuni va o'quvchilarning mavzu yuzasidan olgan bilim daraja ko'rsatkichi kamayadi.

FIZIKA-TEXNIKA

Bu esa o'quvchilarning bilim daraja ko'rsatkichini 3 va undan past ko'rsatkichlarga pasayib ketishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan mushohada qiladigan bo'lsak, darsliklardagi manbalar o'quvchilar bilimining hozirga zamon talablariga javob bera olmaslik hollarini keltirib chiqaradi.

Darsliklardagi mavzularning mazmun-mohiyatiga ko'ra minimal xajm, mazmun va bilim darajaga ega ekanligini ehtiborga olsak va dars konspekti yozishdan voz kechsak, darslikdagi berilgan mavzu bilan bog'lanib qolsak yakuniy natija o'z o'zidan maksimum 3 bahoni tashkil etadi.

Xo'sh, o'quvchilar qachon 4 va 5 bahoga oladilar? Shu nuqtai nazardan o'quv jarayonini tashkil etishda o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda hozirgi zamon talablari darajasida ijrosini ta'minlash uchun darslikda berilgan ma'lumotlardan tashqari qo'shimcha ADABIYOTLARdan, hususan, o'quv ADABIYOTLARI, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, uslubiy tavsiya va ko'rsatmalar, shuningdek, ommaviy ahborot vositalari ma'lumotlari hamda internet tarmog'i manbaalaridan foydalanib, darslikdagi mavzularni ilmiy-metodik jihatdan boyitishni tahqazo etadi.

Davlat ta'lim standartlari talablari darajasida yozilgan mavjud darsliklardagi mavzularning mazmun-mohiyatini minimal hajm darajasida tayyorlanishini e'tiborga olsak, umumiy o'rta ta'lim maktablarida mavzuning "Dars konspekti" mashg'ulot boshlanishidan bir kun oldin, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim tizimida mavzuning "Dars ishlanmasi", shuningdek, o'quv-uslubiy majmuasi o'quv yili boshida joriy o'quv yili uchun tayyorlanadi va kelgusi o'quv yiliga yangisini tayyorlash lozim bo'ladi.

Bugungi kunda davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan barcha ilm ahliga "Hayot davomida o'qish" tamoyilini taklif etar ekan, fan o'qituvchisi har bir darsni kelajak asari sifatida qarab, yuqori darajada ko'tarinki ruh bilan talqin qilinishini istaydiG'2,3G'.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, halq ta'limi tizimida "Mavzu ishlanmasi" bir marta puxta qilib tayyorlanib, kelgusi yillarda "Hayot davomida o'qish" tamoyilini asosida yillik va oylik emas, balki kunlik yangi ma'lumotlar bilan boyitib, to'ldirilib boruvchi metod sifatida tavsiya etish mumkin.

Ushbu "Mavzu ishlanmasi" o'qituvchi faoliyati (ilmiy-metodik salohiyati, ijodkorligi, pedagogik mahorati) darajasini aniqlovchi mehzon sifatida dars mavzusining dolzarbligi, maqsadi va vazifalari mazmun-mohiyatini ochib beruvchi reja, loyiha hujjati bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur innovatsion xarakterga ega bo'lgan "Mavzu ishlanmasi"ning afzalligi shundaki, o'qituvchi fan mavzulariga aloqador bo'lgan har bir mavzu matniga o'z vaqtida yilma-yil, oyma-oy va kunma-kun barcha yangiliklar bilan boyitib boradi va shu bilan bir qatorda o'qituvchi o'zining "Shahsiy banki"ni shakllantirib boradi.

O'qituvchining mazkur shakllantirilgan mavzu ishlanmasidan foydalanishi bir muncha qulayliklarga ega bo'ladi. Masalan: O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rishda turli xil ADABIYOTLAR, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, uslubiy tavsiya va ko'rsatmalar, ommaviy axborot vositalari, shuningdek, internet mahlumotlaridan foydalanishda kutubxonalar va ahborot resurs markazlaridan kerakli ma'lumotlarni ahtarib topish zarurati bo'lmaydi. Chunki, ushbu mavzu yuzasidan qo'shimcha yangi ma'lumotlar "Mavzu ishlanmasi"da o'z aksini topgan.

Shunday qilib, o'qituvchi "Hayot davomida o'qish" tamoyili asosida innovatsion xarakterga ega bo'lgan "Mavzu ishlanmasi" uchun tayyorlangan "Shaxsiy banki"dan foydalanib qisqa vaqt ichida keng qamrovli ma'lumotlarga ega bo'ladi va o'zining qimmatli vaqtini tejaydi va o'quvchiga har bir mavzu yuzasidan kengroq ma'lumotlar berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada, o'quvchilar bilim darajasi ortadi va umumiy o'rta ta'lim maktabi ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi yanada yuqori darajaga ko'tariladi.

O'qituvchi "Mavzu ishlanmasi" matnini tayyorlar ekan, dars jarayonida mumkin darajada nazariyani amaliyot bilan bog'lashga e'tibor qaratishi lozim. O'qituvchi dars jarayonini ahborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanish orqali namoyish etib tushintirsa, o'quvchining esda saqlab qolish darajasi ortadi. Shuningdek, o'qituvchi o'quvchining dunyoqarashi, mantiqiy va ijodiy fikrlashi, berilgan topshiriq bo'yicha o'quv dasturi doirasida, nostandart echimlarni lateral fikrlash orqali berilishini inobatga olish kerak. Chunki, lateral fikrlash, bu avvalo fan o'qituvchisining innovatsion faoliyatga tayyorlashda, o'qituvchi tomonidan qo'yilgan pedagogik vazifalarga yangi yoki nostandart yechimlarni topishda, shuningdek, mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etishda nostandart o'quv vaziyatlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

“Mavzu ishlanmasi” o‘quvchilarning bilim darajasi, muassasasining ta‘lim-tarbiya jarayoni samaradorligini rivojlantiruvchi va yanada yuqori darajaga ko‘taruvchi asosiy omil ekanligi, qolaversa ta‘lim tizimida umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari o‘quv darsliklari shu kabi ishlanmalarga muhtojligi muammosi yaqqol sezilib qoldi.

“Mavzu ishlanmasi”ning dars konspekti va dars ishlanmalaridan farqi shundaki, u yillar davomida shakllantirib to‘ldirib boriladi. Aniqroq qilib aytsak, mazkur mavzu ishlanmasini tayyorlash jarayoni fan o‘qituvchisi tomonidan o‘quv yili boshida bir marta mufassal tayyorlanadi. Tayyorlangan mavzu ishlanmasi birinchi o‘quv yilida fan o‘qituvchisi tomonidan foydalanila boshlaydi. Fan o‘qituvchisi o‘quv yili davomida fan va texnika yangiliklari, ta‘lim tizimi va fanga oid yangiliklarni, shuningdek, mavzuga oid yangiliklarni o‘rganib boradi va har bir mavzu ishlanmasiga kiritib boradi. Huddi shu tartibda yangiliklar bilan to‘ldirib borilgan mavzu ishlanmasi kelgusi o‘quv yili uchun innovatsion xarakterga ega bo‘lgan “Mavzu ishlanmasi” sifatida mavzular mazmun jihatidan to‘ldirilgan holda foydalanish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Demak, har bir fan yuzasidan tayyorlangan “Mavzu ishlanmasi” fan o‘qituvchisi faoliyat ko‘rsatgan yillar davomida yangi ma‘lumotlar bilan to‘ldirilib, mazmunan boyitib boraveradi.

O‘qituvchining esa bu yillar davomida tajriba, malaka, ijodkorlik, salohiyat va kompetentlilik darajasi ortib boradi, shuningdek, yuqori toifalarga va obro‘ga ega bo‘lib boradi.

HULOSA

Yuqoridagi fikrlardan quyidagicha xulosa qilish mumkinki, halq ta‘limi tizimida “Mavzu ishlanmasi” o‘qituvchi tomonidan fanlar bo‘yicha Davlat ta‘lim standartlari talablari doirasida bir marta puhta qilib tayyorlanib, kelgusi yillarda “Hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida fan o‘qituvchisi ishlanmani yilma-yil, oyma-oy, kunma-kun yangi ma‘lumotlar bilan boyitib, to‘ldirilib boruvchi mexanizm - shahsiy bank, ya‘ni o‘qituvchining bilimlar omboriga aylanadi. O‘qituvchi ertagalik o‘quv mashg‘ulotlari uchun dars konspekti ezmaydi, kutubhonalardan ma‘lumotlar izlamaydi va o‘z ustida ishlashga imkoniyat yaratiladi. O‘qituvchi darsining mazmuni va sifati ortadi, o‘quvchi bilim darajasi hamda ta‘lim muassasasida ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligi yanada yuqori darajaga ko‘tariladi. Ta‘kidlash lozimki, innovatsion xarakterga ega bo‘lgan “Mavzu ishlanma”si yangiliklar hisobiga takomillashib, mazmunan boyib boraveradi va unga nuqta qo‘yilmaydi.

Natijada, mamlakatimiz ta‘lim tizimiga qo‘yilgan zamonaviy talablar “Yangi O‘zbekiston”imiz bo‘lajak vorislarining kompetentlilik darajasi yuksalib boradi va rivojlangan davlatlar qatoridan o‘z munosib o‘rnini egallab boraveradi.

Foydalanilgan ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son Farmoni (Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по развитию образования и науки в новый период развития Узбекистана»)
2. O‘zbekiston Respublikasi Halq ta‘limi vazirining 2021-yil 17- dekabrdagi “Umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standarti to‘g‘risida”gi 406-son buyrug‘iga 1-ilova. (Постановление Министра народного образования Республики Узбекистан от 17 декабря 2021 года «О государственном образовательном стандарте общего среднего образования»)
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Halq ta‘limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021 yil 25 yanvardagi PQ-4963-son Qarori. (О мерах по поддержке научно-исследовательской деятельности Президента Республики Узбекистан в сфере народного образования и внедрению системы повышения квалификации)